

PUL OQIMI VA MOLIYAVIY TAHLIL QILISHNING AHAMIYATI

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O`qituvchi: Abduvahobov Shaxzod

Talaba: Azimbekova Samira

Annotatsiya: Ushbu maqola Bank ishi asoslari fanining pul oqimi va moliyaviy tahlil qilishning ahamiyati mavzusini boyitishga bag`ishlangan. Pul oqimlari to`g`risidagi hisobot undan foydalanuvchilarga xo`jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvalidagi o`zgarishlarni baholashga imkon beradi, ularni hisobot davrida qancha pul tushgani va qancha pul chiqqani to`g`risidagi axborot bilan ta`minlaydi. Shuningdek, ushbu maqolda pul oqimi va moliyaviy tahlil qilishning ahamiyati mavzusiga yangilik kiritish, uni rivojlantirish ko`zda tutiladi.

Kalit so`zlar: pul oqimi haqida hisobot, pul ekvivalenti, moliyaviy faoliyat.

Аннотация: Данная статья посвящена обогащению темы о значении денежного потока и финансового анализа основам банковского дела. Отчет о движении денежных средств позволяет пользователям оценить изменения в финансовом положении хозяйствующего субъекта, предоставляя им информацию о том, сколько денег поступило и сколько денег вышло за отчетный период. Также в этой статье планируется познакомить с новостями темы денежного потока и важности финансового анализа, а также развить ее.

Ключевые слова: отчет о движении денежных средств, эквивалент денежных средств, финансовая деятельность.

Abstract: This article is devoted to the enrichment of the topic of the importance of cash flow and financial analysis of the basics of banking. The statement of cash flows allows its users to assess changes in the financial position of the business entity, providing them with information about how much money came in and how much money went out during the reporting period. Also, in this article, it is planned to introduce news to the topic of cash flow and the importance of financial analysis, and to develop it.

Key words: cash flow statement, cash equivalent, financial activity.

KIRISH

Boshqa moliyaviy hisobotlar bilan birga foydalanish chog`ida pul oqimlari to`g`risidagi hisobot axborotlari moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun xo`jalik yurituvchi subyektning pul mablag`larini va ularning ekvivalentlarini jalb etish qobiliyatini baholashga baza bo`lib xizmat qilishi bilan foydalidir. Pul oqimlari to`g`risidagi hisobot pul tushumlari va to`lovlarini uchta asosiy toifaga ajratadi: operatsion faoliyati, investitsiya faoliyati va moliyaviy faoliyat. Har uch toifaning pul

mablag'iga birgalikda ta'siri hisobot davrida pul mablag'ining sof o'zgarishini belgilab beradi. Pul oqimlari harakati to'g'risidagi axborot bo'lajak pul oqimlari prognozi to'g'riligini tekshirish chog'ida, foyda olish va pul oqimlarining sof harakati va narx o'zgarishi ta'siri o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilish chog'ida zarur bo'ladi.

Pul ekvivalentlari — ma'lum pul mablag'iga tez va oson almashtiriladigan hamda qiymatidagi o'zgarishlar tufayli uncha ko'p bo'lgan qisqa muddatli, yuqori likvidli investitsiyalar (moliyaviy qo'yilmalar).

Pul oqimlari — pul mablag'lari hamda ular ekvivalentlarining oqimi (tushumi) va chiqimi (sarflanishi, chiqishi)dan iborat.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot — hisobot davrida pul mablag'i oqimlarini batafsil ko'rsatuvchi ko'rsatkichlar yig'indisi.

Operatsion faoliyati — xo'jalik yurituvchi subyektning daromad keltiruvchi asosiy faoliyati, shuningdek subyektning investitsiya va moliya faoliyatiga oid bo'lmagan o'zga xo'jalik faoliyati.

Investitsiya faoliyati — pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiya obyektlarini sotib olish va sotish.

Moliyaviy faoliyat — xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati bo'lib, uning natijasida o'z mablag'i va qarz mablag'lari miqdori va tarkibida o'zgarishlar yuz beradi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, hisobot davri davomida operatsion, investitsiya yoki moliyaviy faoliyat natijasida xo'jalik yurituvchi subyekt olgan pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishi lozim.

. Xorijiy valyutadagi operatsion faoliyatlaridan pul oqimlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan operatsion amalga oshirilgan kun uchun belgilab qo'yilgan almashtirish qiymatidan foydalanib, O'zbekiston Respublikasi valyutasida aks ettiriladi.

Xorijiy shu'ba jamiyatining pul oqimi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan pul oqimi kelib chiqqan vaqtdagi almashtirish kursi bo'yicha qayta hisoblanishi kerak.

Xorijiy valyutaning almashtirish kursi o'zgarishidan kelib chiqadigan amalga oshirilmagan daromad va zarar pul mablag'i harakati hisoblanmaydi. Biroq almashtirish kursi stavkalari o'zgarishning xorijiy valyutada saqlanayotgan yoki to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'iga yoki ularning ekvivalentlariga ta'siri pul mablag'lari harakatini hisobot davri boshlanishi va oxirida bir-biriga muvofiqlashtirish uchun pul oqimi to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladi. Bu miqdor operatsion, investitsiya va moliya faoliyati natijasida vujudga keladigan pul oqimidan alohida ko'rsatiladi va agar pul mablag'larining bu harakati hisobot davrining oxiridagi pul almashtirish kursida aks etadigan bo'lsa, tafovutga qo'shiladi.

XULOSA: Bugungi kunda pul oqimi va moliyaviy tahlil qilish haqida malulotga ega bo'lishning muhimligini takidlash ushbu maqolada katta ahamiyat kasb etadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, pul oqimi - pul mablag'i va pul ekvivalentidan iborat hisoblanadi. Shuningdek, pul oqimi 3 ta oqimga egadir: operatsion faoliyat, investitsion faoliyat va moliyaviy faoliyat. Pul oqimi to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari asosida tashkilotning pul oqimlarini tahlil qilish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hisobotning axborot ahamiyati kompaniyaning potentsial muammolarini va itisodiy xavflarini aniqlashga imkon beradigan birinchi ko'rsatkichlardan biri bo'lgan pul oqimlari ekanligi bilan bog'liq. Tadqiqot milliy va xorijiy buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarining bir qismi sifatida pul oqimi to'g'risidagi hisobotning axborot ahamiyatini va pozitsiyasini baholashga qaratilgan. Umuman olganda bu sohani o'rganish va yangiliklar kiritish iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adbiyotlar:

1. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Possibilities of Increasing the Activity of Banks in the Securities Market, Journal of Advanced Research and Scientific Progress (JARSP), Volume 02 Issue: 03/2023 ISSN: 2751-7551 (159-162)
2. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Analysis of Existing Management Mechanisms and Assessment Methods of The Bank's General Financial Risk, Journal of Intellectual Property and Human Rights, Volume:02 Issue: 05/ May-2023, ISSN:2720-6882 (227-231)
3. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Improverment of Investment Activities in the Service Sector, Journal of Innovative Studies of Engineering Science (JISES), Volume:02 Issue:03/2023 (53-58)
4. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Factors Causing Credit Risks in Commercial Banks and Their Assessment, Journal of Intellectual Property and Human, Volume:02 Issue:05/May-2023 ISSN:2720-6882 (221-226)
5. Sharipova N. D., Asadova S. D. THE ROLE OF BANKS IN THE MODERN MONETARY SYSTEM //Procedia of Theoretical and Applied Sciences. – 2023. – Т. 6. – С. 55-62.
6. <https://lex.uz/docs/-818994>